



**DAVLAT AGRAR SIYOSATINING KLASTERLASHUVGA
YO‘NALTIRILGAN STRATEGIYASI.**

Turayev Diyorbek Niyatullayevich

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Siyosatshunoslik yo‘nalishi talabasi,

Toshkent sh.

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy davlat agrar siyosatining yangi bosqichida klasterlashuv konsepsiyasi asosidagi strategik yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda qishloq xo‘jaligi klasterlarini shakllantirish orqali resurslardan samarali foydalanish, mintaqaviy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish, qayta ishlashga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritiladi. Tadqiqotda klasterlashuv orqali agrar tarmoqlarda innovatsion muhit, hamkorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga doir xalqaro va mahalliy tajribalarga ham tayaniladi. Shuningdek, klaster siyosatini amalga oshirishda institutsional va hududiy muvofiqlashtirish mexanizmlarining ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi, klasterlashuv, agrar siyosat, innovatsion yondashuv, kooperatsiya.

Agrar klaster tizimi bu qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha ishlab chiqarishdan tortib, mahsulotni qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish va ilmiy-texnik xizmatlar ko‘rsatishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘langan tarzda faoliyat yuritadigan hududiy va funksional modeldir. Bu tizim davlat, xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, eksport hajmini ko‘paytirish va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini beradi.

Agrar klasterlar odatda hududiy ixtisoslashuvga asoslanadi. Ya’ni, har bir klaster o‘sha hududning agroiklim sharoiti, yer resurslari va mahalliy tajribalarga mos ravishda shakllantiriladi. Masalan, Toshkent viloyatida asosan meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan klasterlar mavjud, Jizzax viloyatida donchilik yo‘nalishi ustuvor bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida esa chorvachilik bo‘yicha klasterlar faoliyat yuritmoqda.





Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlatning agrar siyosatida klasterlashuv yondashuvi muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu siyosatning mohiyati qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va ilmiy-innovatsion faoliyatni bir zanjirda birlashtirish orqali mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan kompleks tarzda yondashuvdir. Bu strategiya davlat, xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida kooperatsiyani mustahkamlab, agrar sohaning yuqori samaradorlikda ishlashiga zamin yaratadi.

Mazkur siyosat bir nechta nazariy paradigmalarga asoslanadi. Avvalo, regional rivojlanish nazariyasini esga olish joiz. Bu nazariyada Perroux va Myrdal kabi mutafakkirlar “rivojlanish qutblari” konsepsiyasini ilgari surgan bo‘lib, unga ko‘ra, ishlab chiqarishning bir hududda to‘planishi va uning atrofidagi iqtisodiy subyektlar bilan sinergiya hosil qilishi mintaqaviy taraqqiyotga turtki beradi[1]. Klasterlashuv ham xuddi shunday mexanizmlar asosida shakllanadi.

Shuningdek, Michael Porter tomonidan ilgari surilgan klasterlashuv nazariyasi davlat agrar strategiyasining g‘oyaviy asoslaridan biridir[2]. Unga ko‘ra, klasterlar geografik yaqinlikda joylashgan, o‘zaro bog‘liq ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va ilmiy muassasalardan iborat bo‘ladi. Klasterlar ichidagi raqobat va hamkorlik bir vaqtda innovatsiyalarni, samaradorlikni va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, agro-industrial integratsiya nazariyasi ham agrar klasterlarning nazariy negizini tashkil qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi jarayonlari - ya‘ni xomashyo yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash, qadoqlash, logistika va sotishgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlar – yagona tizim sifatida qaraladi. Bunday integratsiya mahsulotga qo‘shilgan qiymatni oshiradi va tarmoq ichidagi har bir ishtirokchining manfaatini muvofiqlashtiradi.

Agrar klasterlashuv siyosatining amaliy afzalliklari esa quyidagicha izohlanadi:

Birinchi, ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarini birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik ortadi va ishlab chiqarish tannarxi pasayadi. Bu resurslardan optimal foydalanish, yo‘qotishlarning kamayishi va mahsulot sifatining oshishini ta‘minlaydi.





Ikkinchidan, klasterlar doirasida ixtisoslashgan ishchi kuchi shakllanadi. Bu esa mehnat bozorining malakali segmentini yaratadi, tajriba va bilim almashuvi esa jarayonlarni tezlashtiradi.

Uchinchidan, klasterlar orqali texnologik yangiliklar va ilmiy yutuqlar tezda amaliyotga tatbiq etiladi. Fermerlar, ilmiy institutlar va sanoat vakillari o'rtasidagi yaqin hamkorlik natijasida innovatsiyalar joriy etiladi.

To'rtinchidan, qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishi orqali eksport salohiyati oshadi. Klasterlar xalqaro talabga javob beruvchi mahsulot ishlab chiqarish imkonini yaratadi, bu esa global bozorga kirish uchun muhim shartdir.

Beshinchidan, davlat tomonidan beriladigan yordam va investitsiyalar maqsadli va aniqlashtirilgan tarzda ajratiladi. Bu esa byudjet mablag'larining optimal taqsimlanishini va yuqori iqtisodiy qaytuvini ta'minlaydi[3].

Va nihoyat, klasterlar atrofida turli yordamchi xizmat ko'rsatuvchi subyektlar logistika, qadoqlash, servis va boshqa kichik bizneslar shakllanadi[4]. Bu esa hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Jahon tajribasida agrar klasterlashuv siyosatini eng muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlardan biri bu - Niderlandiyadir. Yer maydoni nisbatan kichik, tabiiy resurslari esa cheklangan bo'lishiga qaramay, ushbu mamlakat zamonaviy yondashuvlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda global yetakchilardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bunda ayniqsa, "Agrofood Valley" va "Greenport Holland" kabi ilg'or agroklastler markazlari asosiy rol o'ynaydi[5].

Klaster strukturasi va funksional modeli

Niderlandiyaning agroklastler tizimi uzviy bog'langan va turli subyektlarning hamkorlikdagi faoliyati asosida tashkil etilgan. Bu klasterlar o'z ichiga quyidagi muhim ishtirokchilarni birlashtiradi:

Fermer xo'jaliklari- yirik agrokomplekslardan tortib, kichik oilaviy fermerlargacha;

Qayta ishlash sanoati- logistika, mahsulotni qadoqlash, saqlash va standartlashtirish tizimlari;





Ilmiy-tadqiqot institutlari- xususan, dunyoga mashhur Wageningen University & Research;

Konsalting va axborot xizmatlari- agrotexnologiyalar, moliyalashtirish va marketing yoʻnalishlarida maslahatlar;

Eksport va savdo markazlari- xalqaro bozorlar bilan uzviy integratsiyalashgan tarmoqlar;

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari – siyosiy va moliyaviy muvofiqlashtiruvchilar.

Bunday koʻp qatlamli va zanjirli tizimda har bir ishtirokchi oʻz vazifasini muvofiqlikda bajaradi va natijada yuqori qoʻshilgan qiymat yaratiladi. Klaster modelining asosiy mohiyati- resurslar va bilimlar sinergiyasi orqali butun qishloq xoʻjaligi ekotizimini barqaror rivojlantirishdir.

Wageningen universiteti butun dunyoda agrobiotexnologiyalar va zamonaviy qishloq xoʻjaligi sohasida yetakchi ilmiy markaz hisoblanadi. Bu ilmiy muassasa bevosita ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik qiladi, innovatsiyalarni tajriba maydonlarida sinovdan oʻtkazadi va ularni tezkorlik bilan amaliyotga joriy etadi. Vertikal issiqxonalar, sunʼiy intellektga asoslangan agroanalitika va avtomatlashtirilgan monitoring texnologiyalari aynan shu yerda ishlab chiqilgan.

Niderlandiyada yer va suv resurslari cheklangan boʻlsa-da, tomchilatib sugʻorish, raqamli agroxizmatlar, muvozanatli oʻgʻitlash kabi ilgʻor texnologiyalar yordamida yuqori hosildorlikka erishilmoqda. Bu resurslar tejamkorligining klasterlar orqali amaliy isbotidir.

Bugungi kunda Niderlandiya dunyodagi ikkinchi yirik qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksportchisi (AQSHdan soʻng) hisoblanadi. Har yili \$100 milliarddan ortiq qiymatdagi mahsulotlar xorijiy bozorlarga chiqarilmoqda. Bu natijaga zamonaviy logistika, ekologik standartlar, brending va xalqaro talabga mos mahsulotlar hisobiga erishilgan.

Klaster ishtirokchilari faoliyatini boshidanoq eksport yoʻnalishlariga moslashtirgan. Har bir ishlab chiqaruvchi xalqaro talablarni chuqur anglagan holda, yuqori sifatli va sertifikatlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan. Bunday tizimning afzalligi - bozor bilan uzviy uygʻunlikda ishlashdir.





Agroklasterlar zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish orqali qishloq joylarda mehnat bozorini faollashtirgan. Ayniqsa, yosh kadrlarga ehtiyoj oshgan. Innovatsion fermerlik, agroinjining, marketing kabi yo‘nalishlar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston agrar sohasida ham keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu jarayonlarda klasterlashuv tamoyillarining joriy etilishi alohida e‘tiborga molik bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, ularni chuqur qayta ishlash, saqlash, logistika va eksportgacha bo‘lgan bosqichlarni yagona tizimga birlashtirishga xizmat qilmoqda.

2017-yildan boshlab mamlakatda paxta-to‘qimachilik hamda meva-sabzavotchilik yo‘nalishlarida klaster tizimi bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi[6]. Dastlabki bosqichda bu tizim tajriba tarzida sinovdan o‘tkazilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ijobiy natijalar asosida respublika bo‘ylab keng miqyosda tatbiq etildi. Xususan, 2017-2022 yillar davomida 506 ta agroklaster tashkil etildi. 2022-yil holatiga kelib esa bu ko‘rsatkich 651 taga yetdi[7]. Bugungi kunda paxta va g‘alla mahsulotlarining deyarli 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotlarining esa 40 foizdan ortig‘i klasterlar orqali yetishtirilmoqda. Bu esa tizimning qisqa muddat ichida butun agrar tarmoqni qamrab olishga muvaffaq bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari sohasida oxirgi yillarda sezilarli o‘shish qayd etilgan. 2018-2022 yillar oralig‘ida klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 32 baravarga ortgan. Bu esa klasterlashuv orqali yaratilgan sinerjiyaning amaliy samarasidir. Shu bilan birga, 2018-2020 yillar davomida soha bo‘yicha 1 milliard 411 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etilgan[8]. Paxtani qayta ishlash bosqichlariga kelsak, klasterlarning 14,4 foizida to‘liq beshta bosqich (yetishtirishdan tortib tayyor mahsulotgacha), 15 foizida to‘rt bosqich, 19,6 foizida uch bosqich, 30 foizida ikki bosqich va 8,2 foizida faqat bir bosqich amalga oshirilmoqda.

G‘allachilik klasterlari 2021-yilda 157 tani tashkil etib, ular 36 mingta fermer xo‘jaligi bilan hamkorlikda 957 ming gektar yer maydonida g‘alla yetishtirish ishlarini olib bordi. Klasterlar doirasida amalga oshirilgan 65 ta loyiha uchun xorijdan 547,2 milliard so‘mlik va 20,3 million dollarlik kredit mablag‘lari jalb qilindi. Natijada qariyb 3 700 ta doimiy ish o‘rinlari yaratildi.





Meva-sabzavotchilik klasterlari soni 146 taga yetdi. 2021-yilda ushbu yo‘nalishda 589 milliard so‘mlik 63 ta loyiha rejalashtirildi. Bu loyihalar doirasida qayta ishlash quvvatlari 1,1 million tonnaga, mahsulotni saqlash quvvatlari 308,5 ming tonnaga, qadoqlash quvvati esa 62,2 ming tonnaga yetkazilishi belgilandi. Bunday yondashuv mahsulotni yo‘qotishsiz bozorga yetkazish va eksportga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2022-2026 yillar oralig‘ida paxtani chuqur qayta ishlash yo‘nalishida umumiy qiymati 25,5 trillion so‘mlik 270 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, 2023-2025 yillarda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan qiymati 2,5 milliard dollarga teng bo‘lgan 1300 ga yaqin yangi loyihalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa nafaqat ishlab chiqarishni kengaytiradi, balki eksport hajmini ham keskin oshirish imkonini beradi.

Biroq tizimda ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, Toshkent viloyatida o‘tkazilgan yig‘ilishda paxta va g‘alla yetishtiruvchi tumanlardagi klasterlar faoliyati tanqidiy tahlil qilindi. Yig‘ilishda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Zoyir Mirzayev fermerlar ko‘plab yo‘nalishlarda klasterlarning faoliyatidan norozi ekanliklarini ta’kidladi[9]. Bunday holat klasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida shartnoma intizomi, narx shakllanishi, texnik xizmat ko‘rsatish kabi jihatlarda muvofiqlik yetishmasligini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Shunday ekan, klaster tizimini yanada takomillashtirish uchun davlat tomonidan monitoring mexanizmlarini kuchaytirish, shaffoflikni ta’minlash va ishtirokchilarning manfaatini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek sohibkor dehqonlarga ham ruxlantirish maqsadida yangicha rag‘bat usullari va qo‘llab quvvatlash tizimi ustida qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir, ko‘zlangan natijalarga erishish jarayoni tezlashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://www.researchgate.net/publication/230270307_FRANCOIS_PERROUX%27S_THEORY_OF_GROWTH_POLE_AND_DEVELOPMENT_POLE_A_CRITIQUE

2. <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/0269094213475855>





3. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
4. <https://themys.sid.uncu.edu.ar/rpalma/Industrial/Casos/089124240001400105.pdf>
5. <https://koreascience.kr/article/JAKO201718053155372.page>
6. <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/cluster>
7. <https://oyina.uz/uz/posts/2193?utm>
8. <https://www.agro.uz/statistika-malumotlari>
9. https://uza.uz/oz/posts/zoyir-mirzayev-fermerlarimiz-kop-yonalishlarda-klasterlar-faoliyatidan-norozi_352180?

